

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Ro‘yxatga olindi:**  
BD-70230101 – 1.08.  
“ ” 2024-yil



**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘quv ishlari prorektori:**  
**R.To‘rayev**  
2024-yil

**SEMANTIKA  
FANINING  
O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200000 – San‘at va gumanitar fanlar  
**Ta‘lim sohasi:** 230000 – Tillar  
**Ta‘lim yo‘nalishi:** 70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili)

Fan/modul kodi SM304		O'quv yili 2024-2025	Semestr III	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	SEMANTIKA	60		60	120

1.	<p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – magistrant-talabalarda semantika sohasining nazariy masalalari bilan tanishtirish va sohaga oid bilim va ko'nikmalar hosil qilish, tilshunoslikning semantika sohasi va sotsial kategoriyalar bilan munosabatiga oid masalalarni hamda o'zbek tili semantikasining o'ziga xos jihatlarni tahlil qilish, magistrant-talabalarning tadqiqot ishlarida semantik tahlil qilish salohiyatini shakllantirib borish, fanni o'qitish jarayonida leksik semantika, leksik ma'no va uni ifodalovchi omillar haqida nazariy ma'lumotlar berishdan iborat.</p> <p><b>Fanni o'qitishning vazifasi</b> – fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish, magistrant-talabalarning semantika fani doirasida olgan nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llay bilishga o'rgatish, semantikaning boshqa sohalar, xususan, lingvistik fanlar bilan aloqadorligini ifoda etuvchi asosiy tushunchalari haqida muayyan bilimga ega bo'lish hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.</p>
2.	<p style="text-align: center;"><b>ASOSIY QISM</b></p> <p style="text-align: center;"><b>I. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-MARUZA: Kirish. Kirish. Semasiologiya — tilshunoslikning ma'no haqidagi sohasi.</b></p> <p>“Semantika” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Semantika fanining tilshunoslik fanlari orasida tutgan o'rni. Semasiologiya fanining shakllanishi, Leksik birliklar ma'nosi leksik semantikada, frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari frazeologiya semantikada tadqiq qilinishi haqida bilim berishga mo'ljallangan.</p> <p style="text-align: center;"><b>2- MARUZA: Leksik ma'no va tushuncha. Ma'no qirralari.</b></p> <p>Tushuncha tafakkurning asosiy shakllaridan biri ekanligi. Voqelikdagi narsa-hodisalarga xos bo'lgan tasavvur va belgilarning inson ongida</p>

umumlashgan holda in'ikos etishi. Tushuncha hajmi va tuushuncha mundarijasi. Leksik ma'no murakkab, ko'p qirrali, shu bilan birga, bir butun yaxlit obyekt ekanligi.

### **3- MARUZA: Leksik ma'no va nom munosabati.**

Leksik ma'no leksik semantikaning asosiy kategoriyasi, markaziy turgunchasi ekanligi. Leksik ma'no bilan nom (belgi, shakl, ifoda plani, nomema)ning bog'lanishi tarixiy-ijtimoiy hodisa.

### **4- MARUZA: Uzual va okkazonal leksik ma'nolar.**

So'zda hosila ma'noning yuzaga kelishi leksik ma'no denotatining ob'ektiv borlikdagi narsa, voqelik, harakat, holat va belgi kabilar bilan munosabatiga ko'ra sodir bo'lishi. Bu munosabat til doirasida ham, nutq doirasida ham kuzatilishi. Uzual ma'noning namoyon bo'lishida so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishining ahamiyati.

### **5- MARUZA: Generativ semantika. Kognitiv semantika.**

Til inson ehtiyojini qondiruvchi vosita ekanligi. Tilning bajaradigan vazifalari voqelikni bilish uchun xizmat qilishi, insonlarning o'zaro munosabatga kirishuvini ta'minlashida namoyon bo'lishi. Generativ tilshunoslik vakillari. Generativ tilshunoslikning shakllanish bosqichlari. Kognitiv tilshunoslik. Kognitiv tahlilda semantik strukturaning birlamchi ekanligi.

### **6- MARUZA: Freym semantikasi.**

Transformatsiyalar grammatikasi. Freym qolipi uzvlari. Muloqot muhitining aniq bir ko'rinishini modellashtirish freym tahlilining ustuvor jihatlaridan biri ekanligi. Til tabiatining ma'no ifodasiga xoslangan jihatlaridan xabardor bo'lish uchun, bir tomondan, muloqot matnida u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'ladigan voqelik parchasini qoliqli tasvirlash malakasiga ega bo'lish lozim bo'lsa, ikkinchidan, ushbu tasvirda lisoniy bilimning voqelanishini ham aks ettirish talab qilinishini anglash. Olam qiyofasi tasviriga yondashuv freymni so'zlovchi va tinglovchi yoki muallif va o'quvchi munosabatini aks ettiruvchi belgilar bilan boyitishda muhim ahamiyatga ega ekanligi. «Interaktiv freym» muloqot muhitida sodir bo'layotgan voqealar, munosabatlarning mantiqiy va shakliy tasviri.

### **7- MARUZA: Prototiplik yoxud prototiplar nazariyasi.**

Prototiplar nazariyasi. Prototiplar nazariyasi ma'no shakllanishi jarayonini o'rganish uchun sintetik harakatlarni qo'llashga misol bo'la olishi. Prototip – bu dunyoni bilish faoliyatining asosi bo'lgan kategoriyalash sharoitida ko'rinadigan hodisa ekanligi. Prototip kategoriyalar semantik struktura ma'nolar uyushmasining qatlamlashuvini aks ettirishi, prototip toifalarining tasniflash

belgilari bir xil emasligi sababli toifa a'zolarining teng o'rni bir darajada bo'linmasligi, kategoriyalar aniq chegaraga emas, ularning hududi yangi ko'rsatkichlar, birliklar hisobidan kengayib turishi.

#### **8- MARUZA: Leksik ma'noning kengayishi va torayishi.**

Leksik ma'noning kengayishi va torayishi faqat bir leksik ma'no hajmida ekstralingvistik sababga ko'ra sodir bo'lishi. Leksik ma'noning torayishida u ifoda etgan referentning ma'lum qismlari differensiya bo'lib, boshqa bir nom bilan atalib ketadi. Natijada so'z leksik ma'nosida torayish yuz berishi. Leksik ma'noning torayishi ham, vazifadoshlikka ko'ra hosila ma'noning yuzaga kelishi ham so'z semantikasining davriy taraqqiyotiga, referentlar vazifa almashishiga bog'li holda kechishi mumkinligi.

#### **9- MARUZA: Evfemizm va disfemizm.**

Evfemizm va disfemizm shu tilda gaplashuvchi xalq ruhiyatining o'z so'zlari leksik ma'nosi taraqqiyotida aks etishida muhim vazifa bajaruvchi til birliklari ekanligi. Evfemizm so'z yoki iboraning hosila ma'no yuzaga keltirishi bilan bog'li holda voqelanishi. So'z leksik ma'nosi hosila berishi qonuniyatlari bilan bog'li holda yuzaga chiqishida muhim ahamiyatga ega ekanligi. Evfemizm bilan hosila ma'no yuzaga kelishidagi o'xshashlik bu ikki til hodisasi adekvat ekan degan xulosaga olib kelishi haqida.

#### **10- MARUZA: Leksik ma'nolarning o'z referentini ifodalash xususiyatiga ko'ra tiplari.**

So'zning genetik va hosila ma'nolari o'z referentini to'g'ridan-to'g'ri ifodalash bilan chegaralanishi ham, referentini obrazli qilib, ya'ni boshqa biror leksik ma'no referenta bilan ifodalashi ham mumkinligi. Genetik ma'no hamma vaqt o'z referentini to'g'ridan to'g'ri ifodalash bilan chegaralanishi. Nominativ ma'no, figural ma'no.

#### **11- MARUZA: Leksik va frazeologik ma'nolarning ifodalanishi.**

Leksik va frazeologik ma'no, tilning asosiy tarkibiy qismlari ekanligi va unda milliy-madaniy xususiyatlarning ifodalanishi. Lingvomadaniy xususiyatlarning leksik va frazeologik ma'nolar ifodasidagi o'rni.

#### **12- MARUZA: So'zning leksik, grammatik va so'zlovchining o'z nutqiga munosabatini bildiruvchi ma'nosi.**

Leksik ma'no, grammatik ma'no. So'zlovchining o'z nutqiga munosabatini bildiruvchi ma'nosida semalarning o'rni. So'z ma'nolari tushuncha ifodalashi, bunda kishi ongida aks etgan obyektiv olamdagi narsa, hodisa, harakat, holat va belgi haqidagi tushuncha so'zda o'z ifodasini topishi, bu mustaqil ma'noli so'z turkumlariga xos ekanligi

### **13- MARUZA: Leksik ma'nolarning paradigmatic munosabatlari.**

Leksik ma'nolardagi paradigmatic munosabat ikki jihatdan, yani ma'lum mavzu jihatdan, semantik jihatdan muhim ekanligi. Sinonimiya, absolyut sinonimlar, semantik sinonimlar. Antonimiya. Korrelyatsiya.

### **14- MARUZA: Leksik ma'nolarning o'zaro sintagmatic munosabati.**

So'z valentligi tasnifi. Leksik-semantik valentlik, vositali semantik valentlik. Shakl semantikasi valentligi. Mantikiy-semantik valentlik. Emotik valentlik.

### **15- MARUZA: Ma'no va lisoniy moddiylik munosabati.**

Tilning inson amaliy va mental faoliyatining ajralmas qismi hamda amaliy faoliyat turi, uning vositasi, ekanligi. Ma'no va lisoniy moddiylik munosabati. Ma'no hodisasi va lisoniy ifoda materiali. Fikrni lisoniy shaklsiz ifodalab bo'lmazligi.

## **II. AMALIY MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar qayd etilgan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy masalalarni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha OLGAN bilim va ko'nikmalarini amaliy tahlil orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va qo'llanma, internet ma'lumotlari vositasida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislar chop ettirish orqali saviyani oshirish, test savollari tuzish tavsiya etiladi.

### **Amaliy mashg'ulot mavzulari**

#### **1-AMALIY. Semasiologiya — tilshunoslikni ma'no haqidagi sohasi.**

Tilshunoslikning leksikologiya, grammatika bo'limlarida ham til birliklarining ma'nosi o'rganuvchi sohalar ekanligi. Bu bo'limlarda ma'no tomoni bilan birga, uning funksiyasi sifatida tadqiq qilinishi. Semasiologiyada esa lisoniy ma'no alohida mohiyat sifatida o'rganilishi.

#### **2-AMALIY. Leksik ma'noni ifodalovchi omillar.**

Leksik ma'noning nolisoniy voqelik (insonning tashqi va ichki olami) bilan bog'liqligi, leksik ma'noning voqelikni aks ettiruvchi tushuncha bilan bog'liqligi, leksik ma'noning til sistemasida o'ziga xos o'ringa ega ekanligi. Leksik ma'no tushuncha kabi in'ikos kategoriyasi bo'lib, unda nolisoniy voqelik – insonning tashqi va ichki olami aks etishi.

### **3-AMALIY. Leksemaning mazmuni va uning tarkibi.**

Leksema shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topishi. Leksemaning shakl jihati uning fonetik belgilaridan iborat bo'lib, u tilshunoslikda substansiya, shakl, moddiy tomon, tashqi tomon, belgi, fonetik so'z, signal, fonetik qobiq, nomema atamaları bilan nomlanishi. O'zbek tilshunosligida leksemaning shakl tomoni uchun, ko'pincha, nomema atamasi qo'llanishi. Leksemaning mazmun jihati uchun esa tilshunoslikda ma'no, mazmun, ichki tomon, ifodalanmish, signifikat, funksiya, vazifa, qiymat, semema atamaları ishlatilishi. O'zbek tilshunosligida leksemaning mazmun tomoni, asosan, semema, leksik ma'no atamaları bilan nomlanishi.

### **4-AMALIY. Leksik ma'noning semantik tarkibi.**

Sema tushunchasi haqida. Semalarning semantik maydondagi o'rniga ko'ra tiplari. Semalarniyag semema taraqqiyotiga ko'ra tiplari. Semalarning so'z sememasi tarkibida tutgan o'rniga ko'ra tiplari. Semaning sememalar sintaktik munosabatiga ko'ra tiplari.

### **5-AMALIY. Sema tushunchasi haqida. Semalarning semantik maydondagi o'rniga ko'ra tiplari.**

Leksik ma'no (semema) bo'linmas birlikdan iborat emasligi, balki tarkibiy uzvga ega ekanligi. Semalar qaysi nuqtayi nazardan belgi bildirishiga ko'ra, turlarga bo'linishi. U so'zlarning semantik maydonidagi tutgan mavqeiga ko'ra, so'zlarning semantik taraqqiyotidagi holatiga ko'ra, so'z sememasi tarkibida tutgan o'rniga ko'ra, sintagmatik vazifasiga ko'ra tiplarga bo'liishi. Differensial-semantik metod. Arxisema ma'lum bir obyektlar belgisi, xususiyatini aks ettirishi.

### **6-AMALIY. Hosila ma'no yuzaga kelishining sabablari.**

Hosila ma'no, so'z leksik ma'nosining tarakkiyoti natijasida hosila ma'no yuzaga kelar zkan, bunda ikki sabab ahamiyat kasb etishi. Bu sabablar tilshunoslikda ekstralingvistik sabab, intralingvistik sabablarning asos ekanligi. Hosila ma'no yuzaga kelishidagi intralingvistik sabab so'zning boshqa so'z bilan bog'li bo'lishi, ellipsis shaklda bo'lishi ekanligi.

### **7-AMALIY. Hosila ma'no yuzaga kelishining tasnifi.**

So'z hosila ma'nosi yuzaga kelishini tasnif etish uchun so'zning hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'rtasidagi munosabat ahamiyat kasb etishi. So'z hosila ma'nosining yuzaga kelishi hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari munosabatiga asoslanganligi. Hosila ma'noning yuzaga kelishi besh ko'rinishda: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, tobelilik deb belgilanishi.

### **8-AMALIY. Leksik ma'no tiplari. Leksik ma'nolarning taraqqiyotiga ko'ra tiplari.**

Leksik ma'no tiplarini belgilashda hosila ma'no yuzaga topishining ahamiyati. Leksik ma'nolarning o'z referentini kanday ifodalashi, leksik ma'no ifodalanishidagi so'zning biri kup imkoniyati, so'z yasalishidagi leksik ma'no tiplari diqqat markazida turishi kerakligi. Leksik ma'nolarning taraqqiyotiga ko'ra, leksik ma'nolarning o'z referentini ifodalash xususiyatiga ko'ra kabi leksik ma'iolarni tiplarga ajratish lozimligi.

### **9-AMALIY. Leksik ma'nolarning yasalishiga ko'ra tiplari.**

So'z affiksatsiyasi yasama so'zning semantik tarkibida muhim ahamiyatga ega ekanligi. Yasama so'zning semantik tarkibidagi bir va undan ortiq leksik ma'no o'zakda mavjud leksik ma'nolardan yasab olingan bo'lishi mumkinligi. Yasama so'zning o'zida hosila ma'no yuzaga kelishini inkor etib bo'lmasligi, shunga ko'ra leksik ma'nolarni yana ikki tipga: o'zak ma'no va yasama ma'nolarga bo'linishi.

### **10-AMALIY. Leksik ma'nosi miqdoriga ko'ra so'z tiplari.**

So'zlarning ayrimlari faqat bir leksik ma'noga ega bo'lsa, ayrimlari ikki va undan ortiq leksik ma'nodan tarkib topadi. Shu xususiyatiga ko'ra ular ikki tipga bo'lib o'rganiladi: 1) so'zlarning faqat bir leksik ma'noga ega bo'lishi, ya'ni monosemiya; 2) so'zlarning ikki va undan ortiq leksik ma'noga ega bo'lishi, ya'ni polisemiya. Monosemiya so'zlarning faqat genetik ma'no asosida hosil bo'lib, hosila ma'nolarni yuzaga keltirmasligi, ya'ni semantik taraqqiy etmasligi. Til boyligi faqat so'zlar, iboralar miqdori bilan emas, so'zlarning leksik ma'nolari miqsori bilan ham o'lchanadi. So'zlarning ko'pma'noliligi til boyligida shubhasiz o'z o'rniga egaligi.

### **11-AMALIY. Polisemiya tasnifi. Bosh ma'no.**

Polisemantik so'zning tarkibi faqat leksik ma'nolar miqdori bilan o'lchanishi, boshqa ma'nolar polisemantik so'zni garkib toptira olmasligi, ma'lum polisemantik so'zning leksik tarkibini belgilovchi leksik ma'nolar miqdori bilan uning lug'at maqolasida qayd etilgan ma'nolari miqdori teng kelishi ham shart emasligi. Polisemantik so'zning leksik ma'nolari faqat genetik ma'noning emas, hosila ma'noning ham hosilasi bo'la olishi.

### **12-AMALIY. Polisemiya leksik ma'nolarning o'zaro bog'lanishi ko'rinishlari.**

Hosila ma'no yuzaga kelishi natijasida tarkib topgan polisemantik-mantiq so'zlarda leksik ma'nolarning o'zaro bog'lanishi so'zning semantik taraqqiyoti bo'yicha belgilanishi. Tilshuoslikda leksik ma'nolari o'zaro zanjirsimon bog'langan polisemantik so'zlarning ham faqat hosila ma'no yuzaga kelishi.

### **13-AMALIY. Leksik ma'nolardagi paradigmatic munosabat.**

So'z leksik ma'nolarida paradigmatic munosabat semantik jihatdan qaralganda, tilshunoslikda so'zlar ma'no bir xilligi va ma'no qarama-qarshiligi nuqtai nazaridan guruhchalarga bo'lib tadqiq etiladi. So'z leksik ma'nolaridagi paradigmatic munosabat sinonimiya, antonimiya, korrelyatsiya ostida o'rganilishi.

### **14-AMALIY. Semantik, ideografik, emotsional-ekspressiv va uslubiy sinonimlar.**

Semantik sinonimlarni absolyut sinonimlardan farqlash uchun "aynan bir xil ma'noli" so'zlar deb emas, "o'zaro yaqin ma'noli" so'zlar deb qarash lozimligi, semantik sinonimlar birdan ortiq so'zning ma'lum leksik ma'nosi bir xil bo'lishiga asoslanishi. Yasama semantik sinonim bo'lishi uchun faqat bir so'zdan affiksial sinonim vositasida so'z yasash shart emasligi.

### **15-AMALIY. Antonimiya hodisasi.**

Antonimiya bir juft so'zning o'zaro leksik ma'nolari munosabatida yuzaga chiqishi, bu munosabatga ko'ra falon so'z ikkinchi bir so'zga nisbatan olib qaralib, uning antonimi deb yurugilishi. So'zlarning o'zaro antonim bo'lishi uchun shartlardan yana biri ularning juft so'zdan tarkib topishidir. Antonimlar ayrim til hodisalaridan o'ziga xos belgilari bilan farqlanadi. Antonimlar asosan belgi bildiruvchi so'zlardai iborat bo'ladi va shuning orkasida ular sifat va ravish turkumida ko'plab kuzatiladi.

### **MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI**

1. Leksik ma'nolarning mantiqiy-semantik asosdagi tadqiqi.
2. Leksik ma'nolarni semantik maydonlarga ajratish
3. Leksik ma'nolarning sintagmatic munosabati.
4. Leksik ma'nolarning paradigmatic munosabati tadqiqi.
5. So'zning leksik, grammatik va so'zlovchining o'z nutqiga munosabatini bildiruvchi ma'nosi.
6. Leksik ma'no va tushuncha.
7. Sema tushunchasi.
8. Semalarning semantik maydondagi o'rniga ko'ra tiplari.
9. Semalarning so'z sememasi tarkibida tutgan o'rni.
10. So'z leksik ma'nosining hosila ma'no yuzaga keltirishi.
11. Hosila ma'no yuzaga kelishining tasnifi: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, tobelilik.
12. Leksik ma'noning kengayishi va torayishi.
13. So'zning genetik ma'nosi.



	<p>14. Nominativ ma'no.  15. Figural ma'no.  16. Leksik ma'nolarning nutqqa ifodalanish holatiga ko'ra tiplari. Erkin va bog'li ma'no.  17. Leksik ma'nolarning yasalishiga ko'ra tiplari. O'zak va yasama ma'no.  18. Polisemiya da leksik ma'nolarning o'zaro bog'lanishiga ko'ra tiplari: bosh ma'no, asos ma'no, tobe ma'no.  19. Leksik ma'noni ifodalovchi omillar.  20. Leksik ma'no qirralari.  21. Semema va nutqiy ma'no, sema va uning turlari.  22. Leksema til leksik-semantik sistemasining asosiy birligi sifatida.  23. Frazeologizmlar semantikasi.  24. Leksemaning mazmuni va uning tarkibi.  25. Polisemem leksema da ma'nolararo munosabatlar.  26. O'zbek tilshunosligida semasiologiya bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili.  27. Antonimiya. Korrelyatsiya.  28. Leksik ma'nolarning o'zaro sintagmatik munosabati yoki valentlik.  29. Leksik ma'noning ierarx munosabati.  30. Paremlarining leksik-semantik sinonimiyasi</p>
<p>3.</p>	<p><b>Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni</b></p> <p>“Semantika” fanini o'rganuvchi magistrantlar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va tilshunoslikdagi amaliy masalalarni yechishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra professor-o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Mustaqil ta'lim professor-o'qituvchining magistrantlarga avvalda berib qo'yiladigan fanning mavzulari asosida tashkil etiladi. Bunda magistrantlar qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib, internet saytlaridan foydalangan holda referatlar, kurs ishlari va ilmiy ma'ruzalar tayyorlaydilar, amaliy, seminar mashg'ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.</p> <p>Magistrantga mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ta'limning quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;</li> <li>- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;</li> <li>- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;</li> <li>- maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va konspektlar tayyorlash;</li> </ul>

	<p>- magistrantning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganishi;</p> <p>- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarida faol qatnashish;</p> <p>- masofaviy ta'limni tashkil etishda qatnashish.</p>
4.	<p style="text-align: center;"><b>Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)</b></p> <p>Semantika fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalangan holda, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish orqali talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Shuningdek, atroflicha bilim olish maqsadida, talabalarga mustaqil ish va mustaqil ta'lim beriladi. Bu fanning yutuqlarini tilshunoslik, sotsiologiya va boshqa sohalarga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.</p> <p>Bunda talaba-magistrant "Semantika" fanining shakllanishi tarixi, uning shakllanishida dunyo olimlarining roli, jumladan, rivojlangan mamlakatlarda semantikaning vujudga kelishini o'rganadi.</p> <p>Tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalari, til va jamiyat munosabati, til va tafakkur munosabati, lison va nutq munosabati, asosiy lisoniy munosabatlar haqida bilimga ega bo'lishi.</p> <p>Polisemiya hodisasining umumiy tavsifi, kognitiv, freym va generativ semantika haqida tasavvurga ega bo'lishi.</p> <p>Semantika sohasida leksik ma'noning o'zgarishi, ma'no va lisoniy moddiylik munosabati haqida bilimga ega bo'lishi.</p> <p>Semantika fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalangan holda yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiq etib, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi.</p> <p>Magistrant-talabalarning atroflicha bilim olishlari uchun magistrantlarga mustaqil ish va mustaqil ta'lim beriladi</p>
5.	<p style="text-align: center;"><b>Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:</b></p> <p>ma'ruzalar; kompyuter texnologiyasi asosida slaydlar namoyishi. amaliy mashg'ulotlar; interfaol keys-stadilar; guruhlarda ishlash; klaster; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa va kichik guruh bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>

7.

**Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar**

**ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. 288 б.
2. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2013. 347 б.
3. Ҳакимова М. Семасиология. –Тoshkent, 2008. 100 б.
4. Махмараймова Ш.Т. Hozirgi o'zbek tili (leksokologiya). – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021. 380 b.

**QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil, 1-may. № O'RQ-837.
2. Кучкортоев И. Суз маъноси ва унинг валентлиги. –Тошкент, 1977.
3. Миронова А.А. Семантика и семасиология в современной научной парадигме. Челябинск, 2021.
4. Кронгауз М. Семантика. – Москва, 2005. – С. 352
5. Кобозева И. Лингвистическая семантика. – Москва, 2000. – С. 352
6. Звегинцев В.А Семасиология. – Москва: МГУ, 1957.
7. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. Ўқув қўлланма. –Тошкент, 2000.
8. Искандарова Ш. Ўзбек тил лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фанлари докт. ...дис. автореф. – Тошкент, 1999.
9. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Тошкент: Фан, 1975. 29-45-бетлар.
10. Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валент хусусиятлари. Филол. фанлари докт. ...дис. автореф. –Тошкент, 2007.
11. Нурмонов А, Маҳмудов Н. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент: Фан, 1992.
12. Нурмонов А., Йўлдошев. Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент, 2001.
13. Орифжоновна Ш. Ўзбек тилида лугавий градуонимия. Филол. фанлари номз. ...дис. автореф. –Тошкент, 1996.
14. Плотников Б.А. Основы семасиологии. – Минск, 1984.
15. Раҳматуллаев Ш. Семик таҳлил ва лексик синонимияни таърифлаш масаласи // «ЎТА», 1979, №6,25-30 бетлар.

16. Раҳматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш масалалари//«ЎТА», 1974. №1, 51-53 бетлар.
17. Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1984.
18. Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. -Toshkent: Fan, 2007.
19. Ҳожиев А. Тилшунослик терминлари лугати. –Тошкент, 2002.

#### ELEKTRON TA'LIM RESURLARI

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [http://n.zivouz.com/books/kollei\\_va\\_otm\\_darsliklari/pedagogika/Davlat%20tilida%20ish%20yuritish%20\(N.Mahmudov.%20A.Rafiyev.%20I.Yo'ldoshev\).pdf](http://n.zivouz.com/books/kollei_va_otm_darsliklari/pedagogika/Davlat%20tilida%20ish%20yuritish%20(N.Mahmudov.%20A.Rafiyev.%20I.Yo'ldoshev).pdf)
5. <http://library.tersu.uz/kitoblar/aralash/Davlat%20tilida%20ish%20yuritish.pdf>
6. [http://site.zivonet.uz/ru/search?Find%5Bsearch\\_value%5D=Davlat+tilida+ish+yuritish&Find%5Bresource%5D=library&controller=site&module=all](http://site.zivonet.uz/ru/search?Find%5Bsearch_value%5D=Davlat+tilida+ish+yuritish&Find%5Bresource%5D=library&controller=site&module=all)
7. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
8. [www.genhisphilol.ru](http://www.genhisphilol.ru).
9. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>.
10. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>

8.	<p><b>Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b></p> <p>Mazkur fanning o'quv dasturi "O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2024-yil <del>7</del> - <u>08</u> dagi <u>10</u> -sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>Mazkur fanning o'quv dasturi "O'zbek filologiyasi fakultetining 2024-yil <u>12</u> - <u>06</u> dagi <u>10</u> -sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>Mazkur fanning o'quv dasturi universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil <u>16</u> - <u>06</u> dagi <u>11</u> -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
9.	<p><b>Fan (modul) uchun mas'ul:</b></p> <p>H.Bozorov – o'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.</p>
10.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>A.Hamidov</b> – Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori;</p> <p><b>Sh.Kunnazarova</b> – Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Tillar" kafedrasida mudiri, (PhD)</p>